


PO‘LAT MO‘MIN

# TOPGAN TOPALOO,

*Topishmoqlar*



Toshkent  
«O‘zbekiston»  
2016



Quloq solgin, ey o'ртоq,  
Aytay she'riy topishmoq.  
O'ylab ko'rib bir nafas,  
Neligini topsang bas.  
Topganiga yarasha,  
Har kimga deyman, yasha!

\* \* \*

Juda sevaman uni,  
Xilma-xildir mazmuni.  
O'qituvchi emas-ku,  
Bilim bera olar u.  
U barchaning ulfati,  
Bo'lar ba'zan surati,  
Qani, o'rtoq, buni top!  
Eslagan der: bu .... (*kitob*)



\* \* \*

Tog'dan tushsa shaldirar,  
Oyna kabi yaltirar.  
O'zi bo'ladi suyuq,  
Sovuqda qattiq-quyuq.  
Buni topmoq oson-ku,  
Demak, buning oti... (*suv*)



O'zi kattakon bino,  
Ishlangan xo'p mustahkam.  
Quruqda yurmas aslo,  
Uchmaydi osmonda ham.  
Faqat suvda suzadi,  
Dengizlarni kezadi.  
Qani, do'stlar, bu nima?  
O'zbekcha nomi... (*kema*)



\* \* \*

O'zing yursang, yuradi,  
To'xtasang, jim turadi.  
Minsang, uchib ketadi,  
Uzoq joyga eltadi.  
G'ildiragi ketma-ket,  
Bu — uchqur... (*velosiped*)



\* \* \*

Qush emas-ku, ko'kda uchar,  
Cho'llab qolsa benzin ichar.  
Bulutlardan oshib o'tar,  
Manzilga zumda eltar.  
Bu, osmonda saman otdir,  
Uning oti... (*samolyotdir*)





\* \* \*

Tengdir bo'yi va eni,  
Toza tutadi seni.  
Guli bor bir burchida,  
Bo'lar har o'quvchida,  
Uning joyi-chi, cho'ntak,  
Ozodalikka kerak.  
Barcha bilar, ehtimol,  
Bilasiz, bu... (*dastro'mol*)



Oldin gul edi nuqul,  
Gul yong‘oq bo‘ldi butkul.  
Yorilib ketgach yong‘oq,  
Yana gul chiqdi oppoq.  
Juda ham lo‘ppi o‘zi,  
Tagida bor yulduzi.  
Terib uysang bo‘lar tog‘,  
Urug‘idan chiqar yog‘.  
O‘ylab ko‘ring bu haqda,  
Bu-chi, oq oltin... (*paxta*)



\* \* \*

Bor edi ikki pichoq,  
Birga turishar har choq,  
Qilgan ishlari yaxshi,  
Agar yurishsa qarshi,  
Shundagina ish bitar.  
Bichiqchi kiyim bichar,  
Hozir, o'ylab boqay-chi,  
Oson ekan, bu ... (*qaychi*)




Qator-qator tishi bor,  
Odamlarga u dastyor.  
Pichoq emas, qirqadi,  
Undan o'tin qo'rqadi.  
Ish vaqtida sayraydi,  
Ko'p ishlarga yaraydi.  
Bilib qo'ying bir karra,  
Ustaga kerak ... (arra)



Ruchka emas, yozadi,  
Yozaversang ozadi.  
Har xildir rangi ro'yi,  
Bir qarich kelar bo'yi.  
Bilmaysizmi shuni ham?  
Eski tanish, u ... (*qalam*)





Chopganida o'ngga-chapga  
lapanglaydi.

Ko'zlari-chi xavotirda  
alanglaydi.

Sevgan joyi hisoblanar  
ko'l-u ko'lmaq,  
Yurar doim  
oyoqyalang,  
ya'ni... (o'rdak)





\* \* \*

Berib turgin e'tibor,  
O'zi buyum, bandi bor.  
Tumshug'i bor — u qushmas,  
Qalpog'i boshdan tushmas.  
Har kuni senga kerak,  
O'zing topgin, u ... (*choynak*)



\* \* \*

Odamda bir a'zo bor,  
Vazifasi ma'nodor.  
Biri-birini hech ko'rmas,  
Ammo sog'lom bo'lsa bas,  
Ikkovi juda o'rtoq,  
Bilib qo'ygin, bu ... (*quloq*)






\* \* \*

Suhbat, ishga shaylanib,  
O'tiramiz aylanib.

Bordir to'rtta oyog'i,  
Ko'rinmas ko'z, qulog'i.

Turli-tuman rangi bor  
Biz o'tirgan bu ... (stol)





\* \* \*

Bo'lar o'zi qisqa, uzun,  
Muhim narsa usta uchun,  
Temirdandir, joni qattiq,  
Uni ursang etar «tiq-tiq».  
Yasha, derdim topganing, eh,  
Imoratga zarurdir... (*mix*)



\* \* \*

Qushga o'xshab qo'nar, uchar,  
Uray desang, g'izza jo'nar.  
Zararlari juda ham ko'p,  
Tashigani iflos, mikroob.  
G'ashga tegar u hamisha,  
Uning ismi xira... (*pashsha*)



Toping tezroq,  
Beshta o'ртоq,  
Bo'yi besh xil,  
Ishlar ahil,  
Bir tilakda,  
Bir bilakda.

— Umi, o'ртоq,  
Beshta... (*barmoq*)



\* \* \*

Arslonday zo‘r kuchi,  
Temirdandir cho‘michi.  
Cho‘michida bor tishi,  
Ko‘pga o‘xshaydi ishi.  
Bir o‘zi yer kovlaydi,  
Na charchab kalovlaydi.

— Zap chuqur kovlayotir,  
Bizning... (*ekskavator*)

